

Navoiy viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-iyun oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-iyun oylarida, Navoiy viloyatida jami 5 981,1 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 94,9 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	5 981,1	94,9
Navoiy sh	790,6	101,5
Zarafshon sh	547,9	100,8
G'ozg'on sh	17,0	101,9
Konimex tumani	99,2	101,1
Qiziltepa tumani	705,8	110,5
Navbahor tumani	340,3	102,3
Karmana tumani	379,2	102,8
Nurota tumani	228,1	66,3
Tomdi tumani	565,3	52,3
Uchquduq tumani	243,8	189,8
Xatirchi tumani	365,0	104,3

*) joriy davr bo'yicha qurilish ishlari hajmi yashirin iqtisodiyotni qo'shgan holda hisob-kitob qilingan

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-iyun oylarida Navoiy viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 72,5 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 89,6 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 23,0 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 111,7 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 4,5 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 114,4 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	731,3	546,0	12,2
<i>o'sish sur'ati, % da</i>	53,3	117,0	176,6
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	1 349,5	829,7	256,3
<i>o'sish sur'ati, % da</i>	105,5	108,4	112,6
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	2 256,1		
<i>o'sish sur'ati, % da</i>	103,4		

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-iyun oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 289,5 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 69,8 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 7,8 % ga kamayib, 21,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 40,7 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 107,2 % ni tashkil etgan holda 2 435,5 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 37,7 % ni yoki 2 256,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 103,4 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxona turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Navoiy viloyati	1 289,5	2 435,5	2 256,1	69,8	107,2	103,4
Navoiy sh	162,6	545,1	82,9	82,2	108,8	103,2
Zarafshon sh	-	497,5	50,4	-	115,6	103,4
G'ozg'on sh	-	13,6	3,4	-	105,9	88,3
Konimex tumani	16,4	56,8	26,0	79,5	108,4	103,5
Qiziltepa tumani	223,8	292,2	189,8	129,2	102,8	104,6
Navbahor tumani	34,1	206,0	100,2	109,9	102,1	100,3
Karmana tumani	18,9	196,1	164,2	97,1	103,2	102,9
Nurota tumani	28,7	91,1	108,3	19,0	102,9	104,4
Tomdi tumani	514,2	44,1	7,0	49,4	132,8	103,0
Uchquduq tumani	166,2	37,9	39,7	375,6	83,8	101,6
Xatirchi tumani	29,7	115,0	220,3	102,3	105,0	104,2

*) joriy davr bo'yicha qurilish ishlari hajmi yashirin iqtisodiyotni qo'shgan holda hisob-kitob qilingan

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Uchquduq tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 375,6%), Qiziltepa tumanida (129,2 %) va Navbahor tumanida (109,9 %) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Tomdi tumanida (2024-yilning mos davriga nisbatan 132,28%), Zarafshon shahrida (115,6 %) va Navoiy shaharda (108,8 %) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
M. Bahronov
79 223-54-73 (85-20)

Manzil:

